

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXIMOV MINHOJIDDIN MUHAMMADG‘OLIB O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA IQTIDORLI BOLALAR IJODKORLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferat dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Raximov Minhojiddin Muhammadg'olib o'g'li

О'zbekistonda iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish
texnologiyasi.....3

Рахимов Минхожиддин Мухаммадголиб угли

Технологии для развития образования и творчества одаренных учащихся в
Узбекистане.....26

Technologies for managing the development of creativity of gifted children in
Uzbekistan.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXIMOV MINHOJIDDIN MUHAMMADG‘OLIB O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA IQTIDORLI BOLALAR IJODKORLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3427 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musurmanova Aynisa
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
pedagogika fanlari doktori, professor
Asqarova O'g'iloy Mamashakirovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent vil, Chirchiq shahri A.Temur ko'chasi 104- uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpu_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan).(Manzil: 111720, Toshkent vil. Chirchiq shahri A.Temur ko'chasi 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.
2025- yil "___" _____dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi.

U.N.Xodjamqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
p.f.d., prof.

T.T. Kaziyeva

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.d., dotsent

R.A.Eshchanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, b.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning turli ko‘rinishlari, kreativ mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilgan. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar didaktika va o‘qitish faoliyatni rivojlantirish, ijodiy ta‘lim muassasalari faoliyatini boshqarishda, samarali kompetensiyali yondashuvni faollashtirishga alohida ahamiyat qaratib kelmoqda. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim konsepsiyasida “Sifatli ta‘lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag‘batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko‘nikmalarini yuqori darajada egallash”¹ga alohida e‘tibor berilmoqda. Xalqaro miqyosda ta‘limining sifatini oshirish, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, o‘zini-o‘zi baholash, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga, ayniqsa mamlakatimizda 2019 -yildan boshlab faoliyat olib borayotgan ijod va ixtisoslashgan maktablarda iqtidorli o‘quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish texnologiyasiga alohida e‘tibor berilmoqda.

Dunyo ta‘limida o‘qitish modellarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘un holda kashf qilish, ta‘lim sifati nazariyasi va metodologiyasining yetakchi g‘oyalarini tatbiq etish orqali uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish tamoyillariga yangicha yondashuvlar, ilmiy-pedagogik innovatsiyalar, o‘qitishning “STEAM – ta‘lim” dasturi asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq ta‘lim jarayonida tamomila o‘zgacha nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unligi hamda hayotiyligini ta‘minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etibgina qolmasdan, asosiyligi jihatidan ham o‘z isbotini topdi. Ta‘lim muassasalari tizimida o‘quvchilarning ijodiy faolligi muammolarining yechim yo‘llarini topish, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish, ta‘lim tizimini samarali boshqarish maktab yoshidan o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning qobiliyati, axloqiy va estetik hissiyotlarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, o‘qishga qiziqishi, xohish va istagini, o‘zi va o‘z atrofini o‘rab olgan olamga hissiy munosabatni, ruhiy dunyosini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv tuzilmalarini ishlab chiqishdan iborat. Ijodkor o‘quvchining intellektual qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga, uning ichki imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga ko‘maklashuvchi iqtidorli o‘quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish hamda ularga maqsadli ta‘lim berish texnologiyasiga alohida e‘tibor qaratish, shuningdek, tizim faoliyatini takomillashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb masalaga aylanganligi sababli mazkur ilmiy tadqiqot **“O‘zbekistonda iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi”** deb nom oldi. Hozirgi davr ta‘limning ijodiy faoliyatga

¹ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, I-ncheon, Republic of Korea)

yo'naltirilgan konseptual ilmiy izlanishlari ijodkor o'quvchilarda iste'dodning yorqinlashuvi, ixtirochilikka qiziqishi bu borada umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ertak, hikoya, qo'shiq, musiqaning obrazli mazmunini tezda idrok etishi, ijodiy imkoniyatlarini nazarda tutgan tadqiqotlar milliy ta'lim tizimi uchun juda katta ehtiyojga aylandi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar maktab ta'limidan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini rivojlantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratibgina qolmasdan, o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning samarali pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimining 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani rivojlantirish"² kabi muhim vazifalarni belgilab bergan. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlarga hamda samarali boshqarishga alohida ehtiyoj sezilmoqda shuning uchun ham mamlakatimizda mazkur soha uchun yetarlicha e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv ta'limida o'quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish hamda ularga maqsadli ta'lim berish texnologiyasini, unda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ijodiy faoliyatini samarali tamoyilini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunga esa ijod maktablarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish, nazorat qilish strategiyalarini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarni ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risidagi" O'RQ-406-sonli Qonuni, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli Qarori, 2017-yil 11-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 610-sonli Qarori, 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5538-sonli Farmoni 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiklash to'g'risida. Xalq so'zi gazetasi 2019 yil aprel.

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 - sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentyabrdagi PF-5815 - sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentyabrdagi PQ-4444- sonli Qarori, 2020-2025 yillarda ijod maktablari faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi, Vazirlar Mahkamasining «Prezident ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2021-yil 7-dekabrda 741-son Qarori «Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida» 2022-yil 14-aprelda PF-106-son Farmoni va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda pedagogik uzluksiz ta'limning asosiy tashkiliy-pedagogik jihatlari, didaktik shart-sharoitlari, uslubiy yondashuvlarini nazariy va ilmiy jihatdan takomillashtirish, ta'lim texnologiyalari, ta'lim sifati samaradorligiga erishish imkoniyatlari bo'yicha J.Yo'ldoshev³, R.Ahliddinov⁴ U.Begimqulov⁵, L.Golish⁶, R.Djurayev, U.Inoyatov⁷, M.Mahmudov⁸, A.Musurmanova⁹, X.Ibragimov, M.Vahobov, M.Yuldashev, Sh.Qurbonov va E.Seytxalilov, ta'limda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, fanlararo aloqadorlik masalalarida M.Mirqosimova¹⁰, S.Matchanov, B.Abdullayeva¹¹, N.Abdullayeva, B.Adizov¹², A.Jumanov¹³, U.Mahkamov, G.Fayzullayeva, N.Yuldasheva, integratsion yondashuv asosida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish borasida O.Abduraxmonov, D.Yakibova, R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, dars mashg'ulotlarini integratsiyalashning umumiy xususiyatlariga doir mashg'ulotlar strukturasi hamda texnologiyalari bo'yicha M.Toshpulatova, B.A'zamova,

³ J.Yo'ldoshev — Pedagogik texnologiya asoslari, T., 2004.

⁴ R.Ahliddinov — "Uzluksiz ta'limda pedagogik boshqaruv masalalari" T:2002

⁵ U.Begimqulov — Интернационализация и модернизация процессов высшего образования

⁶ L.Golish — Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. 2010.

⁷ U. Inoyatov — "A system of lifelong education quality assessment" Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, vol. 1, no. 13 (eng), 2015, pp. 21-23.

⁸ M.Mahmudov — Актуальные проблемы корпусной лингвистики Международная конференция «Актуальные проблемы кыргызского и тюркского языкознания» посвященной 70-летию профессора Ташполота Садыкова, Бишкек, 25 – 26 октября 2, с. 115-120

⁹ Musurmanova, A., and other — "Pedagogical mechanisms of development of initiative at students of universities." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8.2 (2020): 71-81

¹⁰ M.Mirqosimova - The use of modular learning technology in teaching primary school students to think independently. An International Multidisciplinary Research Journal., 2021, Volume : 11, Issue : 4, p. 783-791

¹¹ B.Abdullayeva - Methods Of Teaching The Technical Elements Of Football To Students Of Preschool Educational Organizations //Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments. – 2024. – T. 2. – №. 11. – С. 199-204.

¹² B.Adizov - Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Dokt. diss. Toshkent, 2003. -320 b.

¹³ A.Jumanov -Жуманов Алишер Асатуллаевич. "Касбий фаолиятга тайёргарликда педагогик ва техник билимлар интеграцияси" Современное образование (Узбекистан), no. 7 (92), 2020, pp. 50-56.

R.Ibragimov, O.Roziqov, V.Karimova, E.G'oziyev, Q.Yo'ldoshev, S.Nishonova, B. Qodirov va Sh.Boltayevalar ham shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirishni uning aqliy qobiliyati, bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritish muammolariga bog'lab talqin etadilar. Jumladan, V.Karimova shaxsning faolligi, faoliyat turlari va ularni ijtimoiy-xulq motivasiyasi ustida ilmiy izlanish olib borgan.

B.Adizov boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilish qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish ustida izlanish olib borgan.

N.X.Yunusova ijodiy faoliyat yordamida boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash muammosini tadqiq etib, ijodiy faoliyat orqali tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash modelini tuzib chiqadi.

Sh.Boltayeva boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosini tadqiq qilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida o'quvchi ijodiy faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini ta'lim jarayonida rivojlantirish bo'yicha A.Leontyev¹⁴, G.Muxametzyanova¹⁵, B.Pugachevalar tomonidan tadqiq etilgan. A. M. Matyushkin, I. S. Averina, G. D. Chistyakovalar o'quvchi shaxsining ijodiy faoliyatini tashkil qilish masalalari ustida izlanish olib borib, ularning har bir rivojlanish bosqichi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda qaralishi lozimligini uqtiradilar.

Xorijiy olimlardan A.Marshall,¹⁶ M.Porter, O.Solvell, G.Lindqvist, C.Ketels¹⁷ kabilarning izlanishlarida ilm-fanda o'quvchi tarbiyasi va ijodkorligi va ularni samarali boshqarishning iqtisodiy jihatlari, menejmentga oid bir nechta elementlarning o'zaro aloqasi va bir butun maqsad atrofida birlashish bilan bog'liq hodisa sifatida tadqiq etilgan.

O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish muammoli ta'lim kontekstida o'rganilgan. I.P.Volkov, I.V.Dorno, R.I.Ibragimov, V.V.Matkin, M.I.Maxmutov¹⁸ va boshqalar ta'limni ijodiy tashkil etish masalalarini muammoli ta'lim nuqtai nazaridan o'rgangan. Qator tadqiqotlarda o'quvchi tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirishning psixologik muammolari yoritilgan: N.F.Talizina ishlarida o'quv jarayonining turli bosqichlarida o'quvchilar o'zlashtirishining ijodiy-psixologik muammolari atroflicha yoritilgan; A.M.Matyushkin, Ya.A.Ponomaryov¹⁹ o'quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalashda axborotlar bilan ishlash ya'ni bilim, ko'nikma malakalarni rivojlantirish orqali o'quvchi dunyoqarashidagi ba'zi muammolarini tahlil qilganlar.

¹⁴ Психологические механизмы и пути воспитания умений публичной речи. — М., 1972;

¹⁵ Педагог, ученый, организатор науки Г. В. Мухаметзянова Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании»—Казан., 2008.

¹⁶ In the preparation of this Memoir I have had great assistance from Mrs. Marshall. I have to thank her for placing at my disposal a number of papers and for writing out some personal notes from which I have quoted freely. Alfred Marshall himself left in writing several autobiographical scraps, of which I have made the best use I could.

¹⁷ The Determinants of National Competitiveness Mercedes Delgado, Christian Ketels, Michael E. Porter & Scott Stern 2012.

¹⁸ "Теория и практика проблемного обучения", "Проблемное обучение. Основные вопросы теории", "Современный урок и вопросы теории", "Организация проблемного обучения в школе", имеющие фундаментальное значение для развития и перестройки современной педагогики. 2006.

¹⁹ Пономарев Я.А. Знания, мышление и умственное развитие. М., Просвещение, 1967.

F.Ya.Baykov, L.A.Venger va A.L.Vengerlarning tadqiqotlarida ham o‘quvchilar tarbiyasi va ijodkorligi, intuisiya, diskursiv fikrlash “harakat va tafakkur” tizimida tahlil qilingan. Ya.A.Ponomarev²⁰ izlanishlarida ta’lim sharoitida o‘quvchilar tarbiyasi va ijodkorligi kompleks psixologik hodisa sifatida ajratilgan.

Qayd etilgan tadqiqotlarda ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularning ta’lim jarayonini faol ishtirokchilariga aylantirishga oid ko‘nikmalarini namoyon qilish, ijodiy pedagogik tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining ba’zi bir elementlari, ayrim jihatlari ochib berilgan. Biroq iqtidorli o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi maxsus o‘rganilmaganligi tadqiqot ishining mavzusini **“O‘zbekistonda iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi”** deb, nomlanishiga sabab bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari, rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-2017-0927124 “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” (2021-2023 yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekistonda iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi orqali ta’lim sifatini oshirishning pedagogik komponentlarini aniqlashtirish;

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirish orqali pedagogik ta’limning innovatsion modelini ishlab chiqish;

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi orqali fan, ta’lim va ishlab chiqarishda integratsion ta’lim sifatini ta’minlashning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi nazariy asoslarini takomillashtirish;

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirish texnologiyasi asosida ilmiy-nazariy, metodologiya va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Farg‘ona viloyatidagi Erkin Vohidov, Sirdaryo viloyatidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktablari va Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi ixtisoslashgan ta’lim muassasasining jami 432 nafar VII-IX sinf o‘quvchilari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, sharhlash), diagnostik (suhbat, anketa, kuzatish, tasniflash), matematik va pedagogik eksperiment (ma’lumotlarni matematik-

²⁰ Я.А.Пономарев «Знания, мышление и умственное развитие» - М., 1967.

statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash, modellashtirish va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonining pedagogik komponentlari, o'quvchining kompetentlik darajasini baholash va iqtidorini aniqlash indikatorlarini amaliyotga tadbiiq etish mexanizmlarini kvalimetrik mezonlar orqali individual yondashuv, kreativ pedagogik strategiyalar va kompetensiyaviy talablarga moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning innovatsion pedagogik modeli ta'lim turlarining o'zaro aloqador tarkibiy bo'limlarini gorizontaal va vertikal integratsiya va uzviylik tamoyillariga hamda kompetensiyaviy yondashuvga muvofiq bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmini ilmiy-metodik asoslarga ko'ra kompleks tizimlashtirish asosida ishlab chiqilgan;

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi nazariy asoslari ixtisoslashgan maktablarda ta'lim sifatini oshirishning muvofiqchilik, tizimlilik, barqarorlik, sinergetik moslashuvchanlikka asoslangan mobil harakatli tezkor aloqa mexanizmining evristik, induktiv-deduktiv va metodik komponentlarini innovatsion-modulli yondashuv asosida pedagogik loyihalash orqali takomillashtirilgan;

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari kontekstual-modulyar integratsiya, transvers kompetensiyalar sinergetik uyg'unligi va adaptiv-refleksiv boshqaruv tizimini innovatsion-pedagogik paradigmalarga hamda ilmiy-metodik talablarga muvofiq bosqichma-bosqich rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ixtisoslashgan maktablarda o'quv-tarbiya jarayonini iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi asosida takomillashtirish hamda ta'lim tizimi boshqaruv faoliyatida tegishli darajadagi zarur pedagogik komponentlarni ta'minlash masalalari "Pedagogik texnologiya, uning ta'riflari va kasbiy mahorat tushunchasi", nomli o'quv qo'llanmasi, "Iqtidorli o'quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish" mavzusidagi turkum ilmiy maqola va tezislarda yoritilgan;

ixtisoslashgan maktablarda ta'lim sifatini oshirish ya'ni "ijod maktabi – iqtidor laboratoriyasi"ni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

iqtidorli bolalar ijodkorligini boshqarish va rivojlantirish modeli asosidagi kasbiy yo'naltirilgan namunaviy didaktik ta'minoti (o'quv qo'llanma, tavsiyalar) yaratilgan;

ixtisoslashgan maktablarida ta'lim sifatini oshirish orqali tizimlararo manfaatdorlik asosida belgilangan ijtimoiy buyurtma hamkorlik dasturlari, zamonaviy texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasining metodologiyasi: bixeviorizm va kognitiv, bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq shuningdek ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta ishlash hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublika, xorijiy davlatlar olimlari, amaliyotchilarning ishlariga asoslanilganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi

tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ixtisoslashgan maktablarda ta'lim sifatini samaradorligini ta'minlovchi omillarning ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinganligi, iqtidorli bolalarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda samarali pedagogik-texnologik komponentlari aniqlashtirilganligi, sub'yekt-sub'yekt xarakteriga ega bo'lgan hamkorlikning tizimli-tashkiliy vazifalari hamda ijod maktablari ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari, tamoyillari amaliy tavsiyalar va sohaga taalluqli ilmiy - nazariy muammo bo'yicha boyitilgan dasturlar, loyihalar, tavsiya qilingan materiallar va "Pedagogik ta'limining innovatsion modeli" ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ixtisoslashgan maktablarda ta'lim sifatini oshirish texnologiyalari asosidagi iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari kontekstual-modulyar integratsiyasi, transvers kompetensiyalar sinergetik uyg'unligi va adaptiv-refleksiv boshqaruv tizimini innovatsion-pedagogik paradigmalarga hamda ilmiy-metodik talablarga muvofiq bosqichma-bosqich rivojlantirish konsepsiyasi asosida o'quv qo'llanmalar va pedagogik ta'limining innovatsion modeli yaratilganligi, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalardan o'quvchi iqtidorini aniqlash, rivojlantirish va shunga ko'ra to'g'ri kasbga yo'naltirish kabi materiallarini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ixtisoslashgan maktablarda ta'lim sifatini oshirish asosida ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilar:

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonining pedagogik komponentlari asosida o'quvchining kompetentlik darajasini baholash va iqtidorini aniqlash indikatorlarini amaliyotga tadbiiq etish mexanizmlari takomillashtiridi va kvalimetrik mezonlar orqali individual yondashuv, kreativ pedagogik strategiyalar, kompetensiyaviy talablarga moslashtirish asosida aniqlashtirilgan va milliy ta'lim standartlari talablarini integratsiyalash asosidagi ilmiy metodik taklif va tavsiyalardan PZ-2017927124 "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. Natijada ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari sifati samaradorligini oshirishga erishilgan;

ta'lim turlarining o'zaro bog'liq tarkibiy bo'limlari iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning innovatsion pedagogik modeli ta'lim turlarining o'zaro aloqador tarkibiy bo'limlarini gorizontal va vertikal integratsiya va uzviylik tamoyillariga hamda kompetensiyaviy yondashuvga muvofiq bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmini ilmiy-metodik asoslarga ko'ra kompleks tizimlashtirish asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog'iston filialining A1-XT-092997-raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihani

bajarishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024 - yil 26 -dekabrdagi № 579-son ma’lumotnomasi). Natijada ta’lim muassasalari hamkorligini tashkil qilish hamda o‘qituvchilarning kreativ kasbiy kompetentligi takomillashtirilgan;

iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi nazariy asoslari ixtisoslashgan maktablarda ta’lim sifatini oshirishning muvofiqlilik, tizimlilik, barqarorlik, sinergetik moslashuvchanlikka asoslangan mobil harakatli tezkor aloqa mexanizmining evristik, induktiv-deduktiv va metodik komponentlarini innovatsion-modulli yondashuv asosida pedagogik loyihalashga ustuvorlikni oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ixtisoslashgan maktablarda amaliyotga joriylanganligi haqidagi 2021 - yil 27 - dekabrdagi №189-sonli dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 nomdagi ilmiy ish, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 161 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida muammoning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining bayoni va uni amaliyotga joriy qilish natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasi va uning ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida ko‘rib chiqilgan muammoning asosiy jihatlari, O‘zbekiston maktablarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish - pedagogik muammo sifatida, shaxsning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirish haqidagi sharq allomalarininig qarashlari shuningdek, iqtidorli o‘quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik – psixologik xususiyatlari xususan, ta’lim sifatiga olimlar tomonidan berilgan sharhlar, ta’lim sifatining pedagogik komponentlari hamda uni ta’minlashning samarali omil va innovatsion yondashuvlari ochib berilgan.

Maktablarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish uning samarali ta'lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta'limning pedagogik asosi asoslandi. Maktab o'quvchilaridagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz berdi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati sezildi. Bu esa maktab o'quvchilarida atrof-olam ob'ektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etdi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy- intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ldi. Tadqiqotimiz jarayonida maktablarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish ilmiy-pedagogik muammosi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini dolzarblik muammosida - bilimlarni, empirik qarashlarni "ta'lim", "ijodiy faoliyat", "iqtidor" kabi kategoriyalar vositasida bayon qilish "mohiyatdan voqelikka", "voqelikdan mohiyatga" o'tishni taqozo qildi.

Maktablarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini falsafiy-pedagogik asoslari uni rivojlanishning tadrijiy bosqichlari bilan keltirib o'tilganligi bu tushunchaga nisbatan davriy munosabatni ham belgilab bergan. Bobda "O'zbekiston maktablarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish va boshqarish-pedagogik muammo sifatida", "Shaxsning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirish haqida sharq allomalarining qarashlari" va "Iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirish va boshqarishning holati, mohiyati hamda ahamiyati" kabi fasllarda olib borilgan tahlillar natijasiga ko'ra, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda "ta'lim sifati" tushunchasiga quyidagicha mualliflik yondashuvi asosida ta'rif berilgan: *ta'lim sifati ta'lim samaradorligini oshirishda ishtirokchilar kasbiy va shaxsiy kompetentligining uzviylikda, uzluksizlikda shakllanishi, izchillikda rivojlanishi asosidagi yakuniy natijalarning xalqaro va milliy baholash dasturlariga muvofiqligini tavsiflaydigan ijtimoiy tushuncha.* Ta'lim muassasasining ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini iste'molchi talablariga muvofiq keng qamrovli mezon va ko'rsatkichlar orqali baholash, bu ko'rsatkichlarni ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar kompetensiyalarini ta'minlaydigan mazmun, shakl, usullar bilan zamonaviylashtirish, hamkorlikdagi tamoyillar asosida uslubiy, moddiy-texnik ta'minotni takomillashtirish ta'lim sifatini ta'minlashning eng muhim sharti sanaladi, degan xulosaga kelingan.

Yuqoridagi fasllar orqali mavzu doirasida J.Yo'ldoshev, R.Ahliddinov, R.Djuraev, X.Ibragimov, A.Musurmanova, M.Mirqosimova, S.Matchanov, U.Begimqulov, M.Ergashova, L.Golish, M.,Mahmudov, O.Roziqov, Q.Yo'ldoshev, S.Nishonova, B. Qodirov va Sh.Boltaevalar o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosini tadqiq qilgan.

Tadqiqotlar tahlili natijasida, iqtidorli o'quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirishning nazariy asosi keltirilgan. Iqtidorli o'quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish sifatini ta'minlash tadbir- rejalarini loyihalashtirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilarini o'qishga mehnatga qiziqtirish, maqsadlarini ro'yyobga chiqishlarni aniqlash, o'zgarishlarni kuzatish va tahlil qilish jarayonlaridan iborat bo'lgan, ta'lim muassasasi faoliyatining barcha

yoʻnalishlarini oʻz-oʻzini baholash asosida doimiy takomillashtirib borish tizimini ishga tushirish imkoniyatlari aniqlangan.


Taʼlim sifatiga taʼsir qiluvchi iqtidorli oʻquvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish va ximayalash holati, mohiyati hamda ahamiyati yaʼni taʼlimni sifatni boshqarish, obʼekt va subʼekt munosabati, texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga turkumlangan holda asoslanilgan. Bunda taʼlimga taʼsir etuvchi omillarni tahlil qilishda sifat nazoratining bir qator xalqaro usullar ham oʻrganilib, ixtisoslashgan taʼlim muassasalarida taʼlim sifatiga taʼsir etuvchi omillar milliy taʼlim strategiyasi va xalqaro tajribalar asosida keltirib oʻtilgan.

Tadqiqotimiz jarayonida inson biologik va sotsial (ijtimoiy) jihatdan rivojlanish davrlariga asosan goʻdaklik, bolalik, oʻquvchilik, oʻsmirlik, oʻspirinlik, yoshlik, qarilik davrida namoyon boʻladi va oʻziga xos tabiiy xususiyatlari bilan farq qilishi aniqlandi. Insonning biologik xususiyatlari negizida uning ijtimoiy sifati va xususiyatlari-nutqi, yurish-turishi, moddiy neʼmatlardan foydalanishi koʻnikmalari, xulq-atvor meʼyorlarining tarkib topishi, bu meʼyorlarga rioya qilishi mehnat faoliyati va bilim, koʻnikma va malakalar hosil qilishi ongli intizom kabilar shakllanadi. Rivojlanishni L.S.Vigotskiy²¹ taʼlim jarayoni bilan birgalikda qaraydi. Lekin taʼlim va tarbiya oʻquvchi rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlsa ham, ammo hech qachon bir-biri bilan teng va parallel holda sodir boʻlmaydi. Ular bevosita bir-biriga boʻysunmagan holda dinamik tarzda sodir boʻladiki, buni bir xil taʼriflash mumkin emas».

Ilmiy izlanishlar jarayonida maktab oʻquvchilarining rivojlanishida yuqori psixik xususiyatlar ikki holatda paydo boʻlishi aniqlandi (1-rasm):

birinchisi, jamoaviy, ijtimoiy faoliyat;

ikkinchisi esa, individual, oʻquvchining ichki tafakkuri usuli sifatida;



1-rasm. Maktab oʻquvchilarining rivojlanishida psixologik xususiyatlar traektoriyasi.

Birinchisi maktab oʻquvchilarining qator ichki rivojlanuvchi jarayonlarni qoʻzgʻatib, uni iqtidorini rivojlanishga undaydi harakatga tushiradi.

Ikkinchisi esa maktab oʻquvchilarining ichki faol usuli sifatida individual

²¹ Выготский Л. С. Социалистическая перделка человека Архивная копия от 18 ноября 2019 на Wayback Machine (оригинальная прижизненная публикация 1930 года) // Человек. 2016. Т.

tarzda paydo bo'ladi va o'ziga xos namoyon bo'ladi.

Demak, ta'limda rivojlanish maktab o'quvchilari uchun yo'llanma bo'lib, ularni hayotga tayyorlaydi. Ichki rivojlanish jarayonlarini tizimli harakatga keltiradi, shunga ko'ra ta'lim faqat rivojlanish emas balki atrof olamni o'zida aks ettirishdir.

Iqtidorli o'quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish va boshqarishning sifatini oshirishda T.Lomakin (ta'lim tizimi va ta'lim mazmunini integratsiyasi), A.Ignatov, V.Maksimova, N.Belyankova va S.Polyankina, B.Abdullaeva, O.Raximov, U.Mahkamov (fanlararo, mavzulararo aloqalarni integratsiyalash) kabi olimlarning nazariy g'oyalari hamda shu yo'nalishdagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qilgan.

Ta'limni modernizatsiyalashda yondashuvi asosida ta'lim sifatini aniqlash, baholash va ta'minlash mezonlari aniqlashtirilgan. Yuqorida keltirilgan ta'lim sifati pedagogik komponentlari ta'lim turlari bo'g'inlarining fanlararo, o'qitishning uzluksizligi, uzviyligi, ta'lim muassasalarida individuallashtirilgan, differensiallashgan o'quv dasturlarining ishlab chiqilganligi, ta'limni baholashning milliy va xalqaro dasturlarga muvofiqligi, ta'lim-tarbiyaning muammoli va shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar vositasida olib borilishi, o'quv dasturlarining ta'lim iste'molchilari talablariga muvofiqligi, ta'lim turlari xizmatlarida integrallashgan dasturlar asosida ixtisoslashgan, tabaqalashtirilgan o'quvlarning tashkil etilishi, ta'lim beruvchilarning ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha kompetentlik darajalari, ixtisoslashgan ta'limni monitoringining natijaviylik darajasi, yutuq va harakatlar, o'quv resurslari va tuzilmalari kabi yondashuvi mezonlari asosida takomillashtirilgan.


Ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida ta'lim turlari va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilish mexanizmi, sub'ekt-sub'ekt munosabatidagi yangi hamkorlik tamoyillarining takomillashtirilganligi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda ayni shu muammolar hisobga olingan holda, ta'lim sifati tashkiliy-pedagogik komponentlari takomillashtirilgan. Ana shunday maqsadli yondashuv ixtisoslashgan maktab ta'limini, iqtidorli bola shaxsini, uning ichki dunyosiga - hali ochilmagan qobiliyatlari va imkoniyatlariga ijodiy erkinlik berib, ta'lim-tarbiyaning axloqiy qadriyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbekistonda iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirish va boshqarish texnologiyasining pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda “Ixtisoslashgan maktablarda iqtidorli bolalar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish mexanizmida Milliy ta'lim tashabbusi”, “Ta'limda iqtidorli o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasiga integratsion va kreativ yondashuvlar” hamda “Ta'limiy o'yinlar, interfaol dars vositasida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish va boshqarish” kabi tushunchalar mazmunan yoritilgan. Ushbu bobda ta'limda integratsiya sharoitida o'quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini ta'minlashning turli model va shakllari tavsiya qilinadi.

Ta'limda iqtidorli o'quvchilar tarbiyasi va ijodkorligini rivojlantirish texnologiyasiga integratsion va kreativ yondashuvlar uslubini joriy qilish, shu

yoʻnalishdagi tadqiqotlarni tahlil qilish, taʼlim samaradorligini oshirish jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatining psixologik-pedagogik va texnologik jihatlarini yoritish, taʼlim oluvchilarda ijodiy va kreativ koʻnikmalarni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, oʻqitish jarayonida fanlararo, mavzulararo integratsiyaning zamonaviy usul, shakl va vositalaridan foydalanish muammosining nazariy jihatlariga asoslanadi.

Milliy taʼlim modelining asosiy tarkibiy qismlari shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz taʼlim, fan, ishlab chiqarishning uzviy aloqasi shaxs rivojlanishining yaxlit tizimini yaratishni nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqotda masalaning bunday qoʻyilishi taʼlim-tarbiya maqsadlari, mazmuni, uslublari, boshqaruv texnologiyasi, shart-sharoitlari, shuningdek shakl va didaktik vositalarini aniqlashda hal qiluvchi mezon. Bunday yondashuv taʼlim jarayonini tashkil qilishda va boshqarishda oʻqituvchi va oʻquvchilar munosabatlarining oʻzgarishiga, oʻquvchilarning faolligi ortib va shaxsiy mustaqilligining kuchayishiga, taʼlim jarayonining takomillashib borishini taʼminlaydi. Bunda ijodkor oʻquvchi taʼlim-tarbiya obʼekti sifatida bir vaqtning oʻzida oʻz-oʻzini kashf etishning subʼekti ham boʻlib maydonga chiqadi. Integratsiv sharoitida taʼlim samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari keltirilgan.




2-rasm. Taʼlim-tarbiya integratsiyasi moduli

Taʼlim tizimi modernizatsiyasida integratsiyalash innovatsion paradigma hisoblanib, taʼlim turlarining oʻzaro ajralmas hamkorlik munosabatlari doirasida ijodiy, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish mumkinligi asoslab oʻtilgan. Taʼlimda integratsiyalashuv jarayonlarini tadqiq qilish natijasida bir-birini qoʻllab-quvvatlash bilan birga farqli jihatlar ham mavjudligi aniqlangan. Integratsiya

tendensiyasida ta'lim samaradorligini oshirish zamonaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirishning tamoyili va omili hisoblanadi. Fanlararo, mavzulararo, kurs va bo'limlararo integratsiyani sog'lom muhit, o'zaro hurmat va ijodiy hamkorlik mavjud bo'lgan pedagogik jamoada amalga oshirilishi ta'lim-tarbiya integratsiyasi modulida berilgan.

Ixtisoslashgan ta'lim muassasalari sifatini ta'minlashga ilmiy, moddiy va moliyaviy, texnologik, axborotni hamda sifatli ta'lim oluvchini ta'minlashga barcha resurslarni jalb qilish zarurati aynan shu tendensiya asosida amalga oshiriladi. o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion modellarni takomillashtirishda namoyon bo'ladi.



3-rasm. Pedagogik ta'limning innovatsion modeli

Samarali dars jarayonini tashkil etishda ijodiy ta'limiy o'yinlar, o'quvchi iqtidorini rivojlantirishga yo'naltirish imkoniyatini beribgina qolmay, fan

predmeti, uning ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shaklini ham o'zgartirish va bu jarayon, amaliyotini idrok qilish ana shu turiga xos munosabatlar tizimini boshqarish va modellashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot davomida ta'lim turlari va mazmuni integratsiyasiga iqtidorli o'quvchilar faolligini tizimli rivojlantirish orqali yondashiladi va mazkur tizim asosida tashkil etish istiqbolli natijalar berishi prognoz qilindi. Natijada integratsiya jarayonida ta'lim samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy, amaliy asoslanilgan. Faoliyat tushunchasi tahlil etilib, keltirilgan tavsiflardan kelib chiqqan holda ilmiy farazlar taqdim qilingan.

Ilmiy tadqiqotda o'quvchilar iqtidorini rivojlantirishda qaysi yo'nalishlarning hamkorlikdagi faoliyati muhim ekanligini inobatga olib pedagogik va texnologik yondashuvlarga asoslangan iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlash mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Ixtisoslashgan maktab muhitida innovatsion jarayonlarni ta'lim tizimiga faol tatbiq etish muhiti va axborot ta'minotini yaratish, pedagogik-kasbiy faoliyat kompetensiyalarini takomillashtirish hamda uni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Bunda ta'lim samaradorligini oshirish va iqtidorni rivojlantirishda asosiy kuch bo'lgan pedagog kompetensiyalari oliy ta'lim bilan hamkorlikda "ijod maktabi - ijodiy laboratoriya" faoliyatidagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy va tajriba-innovatsion yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirilgan. Ta'limiy o'yin texnologiyalari tadbiqi aks ettiruvchi faoliyatni shakllantirishda o'quvchining kreativ fikrlashi, kognitiv faoliyati va egotsentrik nuqtai nazarini yengib o'tishi, olamni va borliqni anglashi shu muqobillikka asoslangan o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan.

Dissertatsiyaning **"Iqtidorli o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirish va boshqarishga oid tajriba-sinov ishlari mazmuni va samaradorligi"** nomli uchinchi bobida tadqiqot ishida ishlab chiqilgan modellar, loyihalar, mexanizmlardagi metodik tizimni baholash uchun tajriba-sinov ishini tashkil etish va uni o'tkazish, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish vazifasi qo'yilgan. Bunda "Iqtidorli o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirish va boshqarishning tajriba-sinov bosqichlari" va "Tajriba-sinov ishlari natijalari va samardorligi tahlili" kabi fasllarda tahlil qilingan.

Ixtisoslashgan maktablarda sifatli ta'limni o'quv muassasalarida yangicha yondashuvlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish mazmuni va tahlili bayon etilgan. Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi, Halima Xudoyberdieva nomidagi ijod maktabi, Toshkent viloyati Zangiota ixtisoslashgan maktablarning har biridan 2 tadan: 7- "A", "B", 8- "A", "B", 9 - "A", "B" sinflari belgilandi. Jami 432 nafar o'quvchilar ishtirok etishi belgilandi.

Mazkur ta'lim muassasalari bazasida sinov -tajriba ishlari o'tkazilgan bo'lib, quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: asoslovchi (2020-2021 o'quv yili), shakllantiruvchi (2021-2022 o'quv yili), umumlashtiruvchi (2022-2023 o'quv yili). Tajriba-sinov ishlariga 432 nafar o'quvchi jalb etildi.

Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari faoliyatini takomillashtirishda pedagogik yo'nalish doirasidagi tadqiqotning asosiy e'tibori ikki jihatga — tadqiq

uchun tanlangan muammoning nazariy o'rganilishiga va nazariy o'rganish vaqtida aniqlanib, amaliyotga tatbiq etilishi zarur bo'lgan g'oyalar samaradorligining sinov ishlari orqali baholanishiga qaratildi. Bu yo'lda amalga oshiriladigan tadqiqotchilik faoliyatini biz shartli ravishda quyidagi uch bosqichga ajratilgan:

